1-ŞÖBA · VETERINARIYA MEDITSINASI VA HAYVONLAR SALOMATLIGI

QORAQOLPOĞISTON IQLIM ŞAROITIDA PARRANDALARNING INFEKTSION BRONXIT VA KOLIBAKTERIOZ KASALLINING TARQALIŞ DARAJASINI MANITORING QILIŞ

Ubaydullaev T.K., PhD SamDVMÇBU NF., Muxammadiyev S.E., PhD SamDVMÇBU NF., Muradov X.U., v.f.f.d (PhD) VITI Qaşqadaryo ITS rahbari.

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311035
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
190–193
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Ubaydullaev T.K., Muxammadiyev S.E., Muradov X.U. Qoraqolpoğiston iqlim şaroitida parrandalarning infektsion bronxit va kolibakterioz kasallining tarqaliş darajasini manitoring qiliş // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 190–193. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311035

ANNOTATSIYA Uşbu tezisda Qoraqalpoğiston Respublikasi Qanliköl tumanidagi “Agro Biznes Qanliköl” MÇJ parrandaçilik sexida monitoring işlari va gruhlarga ajratkan holda multivit, Tilodix-200 va probiotiklar bilan davolaş işlari amalga oşirilganligi va uning natiyjalari haqida kuzatiş natiyjalari keltirilgan.

KIRIŞ

Hozirgi kunda parrandaçilik qişloq xöjaligining eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Şu jumladan Özbekiston hukumati parrandaçilik sanoatini rivojlantirişga katta e’tibor qaratib kelmoqda va bu yönalişda bir qança davlat dasturlari amalga oşirilmoqda. Şu sababli, parrandaçilik mahsulotlari, xususan, tuxum va parranda göşti işlab çiqariş hajmi oşgan. Özbekiston Respublikasi Qişloq xöjaligi vazirligining ma’lumotlariga köra qişloq xöjalik sohasida etiştirilayotgan mahsulotlarning 25-30 % ini sohaning muhim tarmog‘i sanalgan parrandaçilikdan olinadigan göşt va tuxum mahsulotlari taşkil etadi. [6]

Parranda göşti va tuxum inson oziq-ovqat ratsionida muhim örin egallab, yuqori biologik qiymatga ega bölgan oqsil va boşqa muhim oziq moddalar manbai hisoblanadi. Biroq parrandaçilik xöjaliklarida uçraydigan infeksion kasalliklar işlab çiqariş samaradorligiga salbiy ta’sir körsatib, sezilarli iqtisodiy yöqotişlarga sabab böladi. Ayniqsa, respirator va bakterial etiologiyali kasalliklar parrandalarning klinik holati, tirik vazn ortişi, tuxum mahsuldorligi hamda saqlanuvçanligiga salbiy ta’sir körsatişi mumkin [1,4,5].

Parrandalarda keng tarqalgan virusli kasalliklardan biri infeksion bronxit bölib, u Infectious bronçitis virus (IBV) tomonidan çaqiriladi. Uşbu virus Coronaviridae oilasiga mansub bölib, juda yuqumli respirator kasallik hisoblanadi. Kasallik tovuqlarning barça yoş guruhlarida uçraşi mumkin va respirator belgilar, tuxum işlab çiqarişning kamayişi hamda

ayrim ştammlarida nefrit bilan namoyon böladi. IBV asosan nafas yöllari epiteliysini zararlaydi va qisqa vaqt içida xöjalikda keng tarqalişi mumkin. Kasallikning iqtisodiy ahamiyati juda katta bölib, u butun dunyo parrandaçilik sanoatida eng muhim respirator kasalliklardan biri sifatida qayd etiladi [2].

Infeksion bronxit virusining köplab genetik variantlari mavjud bölib, bu esa kasallikning epizootologik nazoratini murakkablaştiradi. Virusning yuqori mutatsion qobiliyati tufayli turli hududlarda yangi variantlar paydo bölişi kuzatiladi. Şu sababli kasallikning tarqalişini monitoring qiliş va epizootologik vaziyatni doimiy tahlil qiliş muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [3].

Parrandalarda keng tarqalgan bakterial kasalliklardan biri kolibakterioz bölib, u asosan patogen Esçeriçia coli ştammlari, xususan avian pathogenic Esçeriçia coli (APEC) tomonidan çaqiriladi. APEC parrandalarning nafas oliş, ovqat hazm qiliş va boşqa tizimlarida turli darajadagi patologik jarayonlarni yuzaga keltirib, kasallikning lokal hamda sistemali şakllarda keçişiga sabab böladi. Kolibakteriozning klinik-patomorfologik körinişlari orasida koliseptitsemiya, aerosakkulit, fibrinoz perikardit, perihepatit, peritonit va poliserozit muhim örin egallaydi. Uşbu patologik özgarişlar parrandalarning mahsuldorligi va saqlanuvçanligini pasaytirib, parrandaçilik xöjaliklariga sezilarli iqtisodiy zarar yetkazadi. Uşbu kasallik köpinça boşqa respirator infeksiyalar bilan birgalikda uçrab, kasallikning oğir keçişiga olib keladi [7,8].

Köplab tadqiqotlar şuni körsatadiki, infeksion bronxit virusi (IBV) parrandalarning respirator tizimiga tropizm körsatib, traxeya va yuqori nafas yöllarining kiprikçali epiteliy hujayralarini şikastlaydi. Natijada mukotsiliar himoya mexanizmi buzilib, respirator tizimda ikkilamçi bakterial infeksiyalar, xususan, *Esçeriçia coli* tomonidan çaqiriladigan kolibakterioz rivojlanişi uçun qulay şaroit yuzaga keladi [9,10]. IBV va *E. coli* ning birgalikdagi ta'siri respirator organlarda yalliğlaniş jarayonlarini kuçaytirib, traxeit va aerosakkulit kabi patologik özgarişlarning oğirroq keçişiga sabab bölişi mumkin [11]. Ayrim eksperimental tadqiqotlarda virus-bakterial aralaş infeksiya şaroitida parrandalar orasida ölim körsatkiçining oşişi ham qayd etilgan [10].

Qoraqalpoğiston Respublikasi iqlimi keskin kontinental bölib, yoz oylarida yuqori harorat va quruq iqlim, qiş faslida esa sovuq ob-havo kuzatiladi. Bunday iqlim şaroiti parrandalarda stress omillarining ortişiga sabab bölişi mumkin. Stress holatlari esa immunitetning pasayişiga va infeksion kasalliklarning rivojlanişiga zamin yaratadi. Şu sababli hududda parrandalarda infeksion bronxit va kolibakterioz kasalliklarining tarqaliş darajasini örganiş hamda epizootologik monitoringini olib boriş muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Uşbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Qoraqalpoğiston iqlim şaroitida parrandalarda infeksion bronxit va kolibakterioz kasalliklarining tarqaliş darajasini monitoring qiliş va epizootologik holatini baholaşdan iborat.



Şunday izlanişlardan biri Qoraqalpoğiston Respublikasi Qanliköl tumanidagi “Agro Biznes Qanliköl” MÇJ parrandaçilik sexida: Lohmman Sandy zotli, yoşi: 12 hafta bolgan parrandalar soni 26 ming boşdan köp bolgan parranda xojaligida monitoring işlari olib borildi. Parrandalarni saqlaş va oziqlantiriş

1-rasm. Agrobiznes Qanliköl parrandaşilik sexida kuzatişlar olib boriş jarayoni

şaroitlari sanitariya-zoogigiyenik talablar nuqtai nazaridan örganildi. Saqlaş şaroitlaridagi nuqsonlar parranda organizmining qarşiligini pasaytirib, infeksion bronxit va kolibakterioz kasalliklarining paydo bölişiga moyillik tuğdiruvçi omil sifatida baholanadi.

Kuzatiş natiyjasida 26278 parranda klinik tekşirişlar ötkazildi va 1203 ta parrandada klinik jihattan kolibakterioz belgilariga oxşaş belgilar körindi va şu parrandalardan tajriba uçun 80 boş tavuq tanlab olindi hamda 4 ta gruhga ajratildi.

Parrandalar guruhlar böyiça umumiy klinik usullar (közdan keçiriş, xulq-atvor, iştaha, harakat, patlar va şilliq pardalar holati, najas xususiyati, tuxum qöyiş körsatkiçi va tuxum sifati) yordamida tekşirildi. Tekşiruv davomida parrandalar 4 ta guruhga ajratilgan holda belgilangan muddat davomida kuzatuvda böldi. Kuzatiş maqsadida 4 gruhga Lahmonn Sandy zotida mansub 80 ta parranda tanlab olindi va alohida kataklarda saqlandi.

1-jadval

№	Guruh	Boş soni	Aniqlangan klinik belgilar	Kasallangan (boş / %)
1	1-guruh (multivitamin+vaksina)	20	Qisman patologik holat; kolibakteriozga yaqin belgilar; tuxumlarda qon doğlari	1
2	2-guruh (Tilodox-200+vaksina)	20	Umumiy holat yaxşi, aniq klinik belgilar kuzatilmadi	0
3	3-guruh (probiotik+vaksina)	20	Umumiy holat yaxşi, aniq klinik belgilar kuzatilmadi	0

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311035

4	4-guruh (nazorat) (vaksina)	20	Qisman patologik holat; kolibakteriozga yaqin belgilar; tuxumlarda qon doğlari	1

Tekşiriş natijasida vitamin bilan boqilgan 1-guruh parrandalarida qisman patologik holat namoyon bölganligi, kolibakterioz kasalligiga yaqin klinik belgilar kuzatilganligi hamda tuxumlarda qon doğlari aniqlanganligi qayd etildi. Qolgan guruhlarda parrandalarning umumiy holati yaxşi, klinik jihatdan qoniqarli ekanligi kuzatildi.

QÖŞIMÇA KUZATUVLAR

Iştaha, najas xususiyati, tuxum qöyiş körsatkiçi va ölim holatlari böyiça: Jigarning kattalaşganligi, içaklarda qon tomirlar qon bilan to‘lganligi va yaxşi hazm bo‘lmagan ozuqa, qisman suyuq axlat belgilari ham kuzatildi.

XULOSA

Klinik tekşiruv natijalariga köra, multivitamin bilan boqilgan guruhda kolibakteriozga xos klinik belgilar va tuxumlarda qon doğlari qisman namoyon böldi, antibiotik (Tilodox-200) va probiotik qöllangan guruhlarda parrandalarning umumiy holati yaxşi böldi.

ADABIYOTLAR

1. Mulugeta Y Birhanu., Riçard Osei-Amponsah., Frederick Yeboah Obese., Tadelle Dessie. Smallholder poultry production in the context of increasing global food prices: roles in poverty reduction and food security. Animal Frontiers. Volume 13, 2023. pp.17-25.
2. Mark W Jackwood., Review of infectious bronçitis virus around the world. Avian Diseases journal, 2012., pp. 634-641.
3. Cavanagh, D. Coronavirus Avian Infectious Bronçitis Virus. Veterinary Researç, 2007., pp.281-297.
4. Violeta Muñoz-Gómez1., Alexandra P. M. Şaw, et al., Economic impact of çicken diseases and other causes of morbidity or mortality in backyard farms in low-income and middle-income countries: a systematic review and meta-analysis. German Journal of Veterinary Researç. 2025. pp.1-18.
5. Huixin Liu1., Sijia Pan., Çençen Wang., Wenwen Yang., Xiaofang Wei., Yang He., Ting Xu., Kaiçuang Şi., and Hongbin Si. Review of respiratory syndromes in poultry: pathogens, prevention, and control measures. German Journal of Veterinary Researç. 2025. pp.1-26.
6. Vohidova D.S., Boltayev F.Yo., Ergaşev A.A. Toşkent viloyati şaroitida kross ross-308 parrandalarining kolibakterioz kasalligi tasnifi. Экономика и социум. – 2024. – B. 509–511
7. Dho-Moulin M., Fairbrother J.M. Avian pathogenic Esçeriçia coli (APEC). Veterinary Researç. 1999. Vol. 30(2–3). P. 299–316.
8. Nolan L.K., Vaillancourt J.-P., Barbieri N.L., Logue C.M. Colibacillosis. In: Diseases of Poultry. Wiley-Blackwell, 2019.
9. Hoerr, F. J. The Pathology of Infectious Bronçitis. *Avian Diseases*,2021 65(4), 600–611.
10. K Nakamura, J K Cook, J A Frazier, M Narita. Esçeriçia coli multiplication and lesions in the respiratory tract of çickens inoculated with infectious bronçitis virus and/or E. coli. Avian Diseases. 1992 36(4):881-90.
11. Dwars, R. M., Matthijs, M. G. R., Daemen, A. J. J. M., van Eck, J. H. H., Vervelde, L., & Landman, W. J. M. Progression of lesions in the respiratory tract of broilers after single infection with Esçeriçia coli compared to superinfection with E. coli after infection with infectious bronçitis virus. *Veterinary Immunology and Immunopathology 2009*, 127(1–2), 65–76.